



BA'ZI MORFOLOGIK HODISALARDA TRANSPOZITSIYA MASALASI

U.S.Yigitaliyev

*Qo'qon davlat universiteti dotsenti*

**Abdurayimova Muxlisaxon Sobitjon qizi**

*Qo'qon davlat universiteti magistranti,*

[muxliskasodiqjonova1@gmail.com](mailto:muxliskasodiqjonova1@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek tilida transpozitsiya hodisasi va uning morfologik jihatdan o'rganilishi haqida fikr yuritiladi. Transpozitsiyaning so'z turkumlari o'rtasida sodir bo'lish shakllari, ularning morfologik ko'rinishlari va grammatik omillar bilan bog'liqlik jihatlar ba'zi fe'l shakllari misolida tadqiqqa tortildi.*

**Kalit so'zlar:** *transpozitsiya, morfologik aspekt, ko'chish, o'zaro ko'chish, til, o'tish, so'z turkumlari, zamon, zamon shakllar, o'tgan zamon, kelasi zamon, hozirgi zamon.*

**Annotation:** *This article examines the phenomenon of transposition in the Uzbek language and its morphological study. Forms of transposition between parts of speech, their morphological manifestations, and aspects of their relationship with grammatical factors are examined using selected verb forms as examples.*

**Key words:** *transposition, morphological aspect, migration, intermigration, language, transition, parts of speech, time, tense forms, past tense, future tense, present tense.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается феномен транспозиции в узбекском языке и его морфологическое исследование. Формы транспозиции между частями речи, их морфологические проявления и аспекты их взаимосвязи с грамматическими факторами изучаются на примере некоторых форм глаголов.*

**Ключевые слова:** *транспозиция, морфологический аспект, миграция, интермиграция, язык, переход, части речи, время, формы времен, прошедшее время, будущее время, настоящее время.*

**KIRISH.**

O'zbek tilshunosligida so'zlarni tasniflashda ma'lum an'analarga ega. Xususan tilshunosligimizda XI-XII asrlar arab grammatikasi talqini asosidagi ISM, FE'L, HARF hamda XX asr Yevropa tilshunosligida ishlab chiqilgan 10-12 turkumli tizimlardan foydalanib kelinayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu yo'nalishda A. Fitrat, Q. Ramazonov, F. Kamolov, Z. Ma'rufov, U. Tursunov, A. G'ulomov, X. Komilova, S. Ferdaus, SH. SHoabdurahmonov, M. Mirzayev, S. Usmonov, M. Asqarova, I. Rasulov, SH. Rahmatullayev, H. Berdiyev, S. Fuzailov, A. Muxtorov, A. Hojiyev, R. Qo'ng'urov, B. O'rinboyev, K. Nazarov, T. Rustamov, J. Bo'ronov, A. Abduazizov, S. Nizomiddinova, M. Sodiqova, M. SHamsieva, R. Komiljonova singari o'nlab tilshunoslar umumiy yohud xususiy tarzdagi izlanishlarni olib borishib, o'zbek tilining hozirgi grammatikalarida mavjud bo'lgan so'z turkumlari tizimini shakllantirdilar. SHunga qaramay, yirik tilshunos olimlar A. Hojiyev, E. Begmatovlar haqli ravishda



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ta’kidlaganlaridek, “... so‘zlarni lug‘aviy-grammatik turkumlarga ajratishning mezonlari haligacha aniq va izchil belgilangan emas” [8:11-17]. Demak, so‘zlarni turkumlarga ajratish mezonlarini aniqlash hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Ko‘rinadiki, ushbu muammo bizning e’tiborimizni endi o‘zbek tilshunosligida ham hozirgi kunga kelib anchagina rivojlangan sistemaviy talqin usuliga qaratdi. O‘zbek tili lug‘at boyligini umumiylik sifatida fahmlanadigan til va uning voqelanishi bo‘lgan nutq hodisalarini farqlash asosida tahlil etish zarur ekanligini ta’kidlash hamda isbot qilish tavsiflanayotgan ishning asosini tashkil qiladi.

Mazkur ilmiy axborotimiz tadqiq ob’ekti bo‘lgan morfologik transpozitsiyani fe’l zamon shakllarida ko‘rib o‘taylik. Masalan: fe’l zamon shakllarining qo‘llanish xususiyatlari. Darhaqiqat, bir zamon shakliga ega bo‘lgan fe’lning boshqa — “o‘zi uchun odatdagi, tipik bo‘lmagan”- zamon ma’nosida — “o‘ziniki bo‘lmagan” vazifada qo‘llanishi, albatta, matnning kuchi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan: Ertaga to‘y marosimi o‘tkazyapmiz (shakl — hozirgi, mazmun - kelasi: buni zamon ma’nosini ifodalashning leksik vositasi — ertaga so‘zi ham ko‘rsatib turipti). Bunday qo‘llanishning o‘z maqsadi, turli sharoitlari (masalan, bu tipdagi — keltirilgan misoldagi — transpozitsiya jarayonida fe’lning maxsus ma’noviy guruhga xosligi — harakat fe’llaridan bo‘lishi asosiy shartlaridandir va yana boshqa xususiyatlari bor. Bu hodisa (o‘tkazyapmiz — o‘tkazamiz) grammatik shakllarini ko‘chirib — ko‘chgan holda qo‘llanishning bir ko‘rinishidir. Bu tipdagi ko‘chma qo‘llanishga nisbatan transpozitsiya atamasi ham ishlatiladi). Lekin bu atama bunday (tor ma’noda) ishlatilish bilan birga keng ma’noda qo‘llanish holatiga ham ega, u, masalan, so‘z turkumlarining ko‘chishi uchun ham ishlatiladi.

Ko‘chma ma’noda qo‘llanishning umumiy xususiyatlari bilan bog‘langan bir qancha masalalar bor (aniq materiallarning tahliliga kirishishdan avval shular bilan tanishib o‘tish zarur bo‘ladi):

1. Bir zamon shaklining boshqa zamon ma’nosi uchun qo‘llanishi — ko‘chma qo‘llanish (bu ma’noda “zamonlarni almashtirish”, “o‘rnini bosish”, “boshqa zamon formasida ishlatish”, “ko‘chirib qo‘llash” kabi iboralar ham qo‘llanadi) hodisasi ma’lum zamon ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan fe’llarning ma’lum sintaktik qurilishida bunda boshqa ma’noda ham kela olish xususiyatini ko‘zda tutadi. Bunday qo‘llanish fe’l zamon ko‘rsatkichining vazifasini va ishlatilish doirasini ko‘paytiradi. Bunday qo‘llanish, birinchidan, shakllarning qo‘llanishida odatdagi ma’nolar doirasidan chiqishi xarakterida bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘zi ma’lum sistema tusida bo‘ladi. Ko‘chirishda fe’lning grammatik ko‘rsatkichi iboradan anglashilib turgan mazmuni bermaydi, demak, buning asosiy vositasi “grammatik-kontekstual majmua”dir.

2. Zamon ifodalovchi leksik vositalar (kecha, ertaga kabi so‘zlar) odatda, fe’lning zamon ko‘rsatkichi bilan mazmunan uyg‘un bo‘ladi. (hali boraman, hozirgina chiqib ketdi), lekin bunday so‘zlarning uyg‘unligi — “payt mosligi” bir so‘zning bir necha xil ko‘rsatkich bilan birika olish tusida ham bo‘ladi. (Hozir ketdi.-Hozir ketyapti.-Hozir boradi).

Bilamizki, til muloqot vositasi, fikr almashish jarayoni hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda til sathlari ko‘chish xususiyatiga ega. Ammo so‘zlarning bir so‘z turkumidan ikkinchi so‘z



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



turkumiga transpozitsiyasi (ko'chish) haligacha to'liq o'rganilmagan, uni hal qilishda bahsli fikrlar mavjud. Transpozitsiya – bu til birligining boshqa grammatik kategoriya yoki leksik-sintaktik guruhga aylanishi jarayoni.[1:26-32; 6:18:]

Ya'ni, so'z yoki so'z birikmasi o'z funksiyasini o'zgartirib, boshqa turdagi grammatik birlik sifatida ishlatiladi. Masalan, ot turkumidan sifat, fe'l turkumidan ot hosil bo'lishi mumkin. Bu jarayon to'liq yoki morfologik (yasalish orqali) yoki sintaktik (gapdagi vazifasi o'zgarishi orqali) bo'lishi mumkin. Morfologik aspektda oladigan bo'lsak, masalan, ot shaklida qabul qilingan birlik fe'lga o'tishi yoki, aksincha kabi holatlar kuzatiladi: gap+ir = gapir shaklida.

Morfologik aspektda transpozitsiyani tahlil qilish o'zbek tilining grammatik tizimini ilmiy asosda yangicha yoritish imkonini beradi.[3:16]. Chunki bu hodisa orqali so'z turkumlari o'rtasidagi o'zaro o'tishlar, ularning grammatik shakllarining funksional o'zgarishi, qo'shimchalarning vazifasi va ma'nodoshlik munosabatlari aniqlanadi.

Bu maqolaning maqsadi — O'zbek tilida transpozitsiya hodisasining morfologik aspektini (ya'ni so'z turkumlari o'rtasidagi morfologik ko'chishlarni) tahlil qilish, uning xususiyatlari, omillari va til ichidagi funksional natijalarini aniqlashdir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transpozitsiya hodisasi qadimgi yunon olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu jarayon Aristotel va uning shogirdlari tomonidan e'tirof etilgan. Keyinchalik lotin tilida ham transpozitsiya keng tadqiq etildi. O'rta asrlarda arab tilshunoslari ham transpozitsiyani o'rganganlar, xususan, Sibavayh arab grammatikasida so'zlarning grammatik va morfologik o'zgarishini tahlil qilgan va transpozitsiyaning turli shakllarini tahlilini aniqlagan. Biroq tilshunoslik sohasida transpozitsiya masalasini birinchi bo'lib ko'rib chiqqan F. de Sossyur til birliklarini doimiy rivojlanish va o'zgarish xususiyatlarini ta'kidlab, transpozitsiyani bu jarayonning tabiiy qismi sifatida ko'rsatadi [2:74; 3:15].

Sh. Balli esa tilshunoslikda alohida hodisa ekanligini qayd etgan, keyingi davr lingvistlari uning bu terminini rivojlantirganlar. U transpozitsiyaning ikki turini farqlaydi: 1. Ramzning leksik ma'nosi o'zgarmagan holda boshlang'ich sintaktik vazifasining o'zgarishi – funksional. 2. So'zning sintaktik vazifasi bilan parallel ravishda yangi leksik ma'no kasb etishi – semantik transpozitsiya. Keyinchalik bu ikki tip leksik va sintaktik derivatsiya sifatida taqqoslangan. V.V. Vinogradov transpozitsiyani so'zlarning sintaktik va morfologik jihatdan yangi funksiyaga o'tishi sifatida ta'riflaydi. X. Paul transpozitsiyani so'z turkumlari orasidagi o'tish deb tushuntiradi. P.A. Soboleva nuqtayi nazariga ko'ra, “transpozitsiyani tilning tuzilishi va ishlashida katta rol o'ynaydigan assimetriyaning bir shakli sifatida ko'rish mumkin [6: 22]. Ko'plab filologlar uchun til tizimining nominativ imkoniyatlarini kengaytirishga, so'zlarning kombinatsiyasiga, ma'no nozikliklarini ifodalash imkonini oshirishga yordam berishini ta'kidlashadi.” [4:22; 7:29]

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Transpozitsiya hodisasi haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ldik, endi ishimizning asosiy qismiga o'tamiz, ya'ni transpozitsiya hodisasini tahlil qilamiz. Materiallar orasidan ot,



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



fe’l, olmosh, ravish va sifat turkumlari o‘rtasida sodir bo‘lgan transpozitsiya holatlari ajratib olindi. Har bir birlik morfologik tahlil qilinib, grammatik shakllarning o‘zgarish darajasi, ma’no kengayishi yoki qisqarishi, so‘zning sintaktik funksiyasi qayd etildi.

Morfologik tahlil usuli orqali so‘zlarning turkumga xos grammatik kategoriyalari (masalan, fe’l uchun zamon, shaxs, nisbat; ot uchun kelishik, egalik, son) aniqlanib, transpozitsiya jarayonida bu kategoriyalarning qanday o‘zgarishi o‘rganildi. Misol uchun, **“qizil”** sifat so‘zi ot turkumiga o‘tganda kelishik qo‘shimchalarini oladi (“qizilni ko‘rdim”), bu esa morfologik transpozitsiyaning to‘liq sodir bo‘lganini bildiradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilida transpozitsiya jarayonlari eng ko‘p ot, sifat va fe’l turkumlari o‘rtasida kuzatiladi. [4: 19] Ayniqsa, sifat - ot; ot - fe’l; sifat - fe’l o‘tishlari eng faol turlar sifatida qayd etildi. Sifat - Ot ko‘rinishidagi ko‘chishlar (otlashish) eng ko‘p uchraydi. Bu turdagi o‘tish eng faol kuzatilgan. Masalan: **“Oq”**, **“qizil”**, **“yaxshi”**, **“katta”** kabi sifatlar ko‘pincha predmet nomini ifodalovchi ot vazifasida ishlatiladi: **“Qizilni oldim”** (bu yerda qizil so‘zi ot bo‘lib, predmetni bildiradi); **“Yaxshilar yutadi”** (so‘z sifat va kelishik qo‘shimchasini olgan). Bu holatlar so‘zning morfologik jihatdan yangi turkumga to‘liq moslashganini ko‘rsatadi. **Ot-olmosh: hamma keldi; ot-sifat: yaxshilar ko‘paysin; ot-son: ikkalasi keldi; ot- ravish: ko‘plar yutadi** kabi misollar keltirish mumkin. Bir turkumdan boshqa turkumga o‘tish jarayoniga misollar: oq- oqarmoq (sifat- fe’l); bil - bilim (fe’l-ot); ko‘p- ko‘pay (ravish- fe’l) va hokazo. Quyidagi jadvalda turkumlarning ko‘chishi yanada tushunarli yoritilgan:

So‘z turkumi	O‘tgan turkum	Misol	Jumlada qo‘llanilishi	Hodisa nomi
<b>Ot</b>	Sifat	oltin	oltin uzuk (sifat vazifasida)	Otning sifatlashuvi
<b>Sifat</b>	Ot	katta	kattalar majlisi (ot)	Sifatning otlashuvi
<b>Fe’l</b>	Ot	yurish	uning yurishi yaxshi (ot vazifasida)	Fe’lning otlashuvi
<b>Ravish</b>	Sifat	tez	tez mashina (sifat vazifasida)	Ravishning sifatlashuvi
<b>Sifat</b>	Ravish	yaxshi	yaxshi gapirdi (ravish)	Sifatning ravishlashuvi
<b>Son</b>	Ot	besh	beshov keldi (ot)	Sonning otlashuvi

Demak, natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘z turkumlari qat’iy emas, balki moslashuvchan, bir so‘z turli vazifada ishlay oladi, til tizimi dinamik va ochiq tizim ekan. Shunday qilib, transpozitsiya hodisasi haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Chunki bu hodisa tilning ichki qonuniyatlarini ochadi, tilning sinonimik lug‘ati boyib boradi.





### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, transpozitsiya hodisasi o‘zbek tilining morfologik tizimida markaziy, faol va ijodiy jarayon sifatida shakllangan. U so‘z turkumlarining biridan ikkinchisiga ko‘chishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga tilning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘zbek tilida bir zamonga mansub grammatik shaklning kontekst ta’sirida boshqa zamoni ifodalashi ancha keng tarqalgan hodisa bo‘lib, zamonaviy (amaliy yoki kompyuter) tilshunoslikda morfologik analizator nuqtai nazaridan muayyan grammatik shakllarning korpus matnlarida anglatgan turli ma’nolarini statistik o‘rganish va tavsiflash uchun qimmatli ilmiy ma’lumot beradi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdullajonova, J. 1993. Fe’l zamon formalarining uslubiy xususiyatlari. (O‘quv qo‘llanma). — Toshkent: Fan nashriyoti., 1993. — B.28
2. Abdurahmonov G’. O‘zbek tili grammatikasi. Morfologiya. — Toshkent: Fan nashriyoti., 1996. — B.26-32
3. Ismoilov, D. So‘z yasash nazariyasi va transpozitsiya jarayoni. Toshkent: O‘zMU ilmiy nashriyoti. 2016. — B.74-79
4. Yigitaliyev U. “Odam” kontsepti bilan assotsiativ bog‘langan morfologik hodisalar /// Toshkent, 2020. Jurnal: Til va adabiyot ta’limi, 8-son. — B.15-17.
5. Yigitaliyev U. Gapning kommunikativ qurilish jarayonida “shaxs” tushunchasining deytik ifodalanishi // Toshkent, 2020. Jurnal: O‘zbek tili va adabiyoti, 5-son. — B.99-103.
6. Соболева П.А. О Поняти парадигмы в формообразовании и словообразовании // Лингвистика и поэтика. — М.: Наука, 1979. — С. 74.
7. Xudoyberdiyeva, S. “Sifat va ot turkumlari o‘rtasidagi o‘tish hodisalari. // O‘zbek filologiyasi axborotnomasi. — Toshkent, 2019.
8. Hojiyev A., Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uni o‘rganishning aktual masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985, 5-son, 11-17 -b.

<https://uznatcorpara.uz/>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Morfologiya>

<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/morfologiya-bo-limi-grammatik-shakl-va-uning-turlari>